



Malika XOLMATOVA,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

E-mail: ibadullayevna81@gmail.com

JDPU professori, f.f.d A.Mamatov taqrizi asosida

LEXICAL-PHASEOLOGICAL FIELD: EXPRESSIVE FEATURES OF ADJECTIVES AND THEIR FREQUENCY OF USAGE

Annotation

In the field of linguistics, the concept of the lexical-phraseological field is one of the fundamental methodological approaches for analyzing the interrelations between words and phraseological units. This article focuses on the roles and idiomatic characteristics of adjectives within phraseological units. When used in phraseological units, adjectives are one of the main factors determining the degree of imagery and emotional intensity of the language, portraying the internal and external character traits and physical characteristics of a person or object in vivid colors. This study sheds light on how adjectives are used in phraseological units and how they expand the language's imagery capabilities. The analysis presents the high, medium, and low frequencies of adjectives in adjectival phraseologisms with precise figures.

Key words: Adjectival phraseology, lexical-phraseological field, adjectives, frequency of usage, semantic potentials, sememe, lexeme, Sketch Engine.

ЛЕКСИКО-ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЕ ПОЛЕ: ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ И ЧАСТОТА ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация

В области лингвистики понятие лексико-фразеологического поля является одним из основных методологических подходов для анализа взаимосвязей между словами и фразеологическими единицами. Данная статья сосредоточена на ролях и идиоматических характеристиках прилагательных в фразеологических единицах. Когда используются в фразеологических единицах, прилагательные являются одним из основных факторов, определяющих степень образности и эмоциональной насыщенности языка, отображая внутренние и внешние черты характера и физические характеристики человека или объекта яркими красками. В данном исследовании освещается, как прилагательные используются в фразеологических единицах и как они расширяют образные возможности языка. Анализ представляет высокие, средние и низкие частоты использования прилагательных в адъективных фразеологизмах с точными цифрами.

Ключевые слова: Лексико-фразеологическое поле, прилагательные, частота использования, семантические возможности, сема, лексема, Sketch Engine.

LEKSIK-FRAZEOLGIK MAYDON: SIFATLARNING IBORAVIY XUSUSIYATLARI VA QO'LLANISH CHASTOTASI

Annotation

Tilshunoslikda leksik-frazeologik maydon tushunchasi, so'z va frazeologik birliklarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda asosiy metodologik yondashuvlardan biridir. Ushbu maqola sifatlar va ularning frazeologik birliklar tarkibidagi o'rni hamda iboraviylik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Sifatlar, frazeologik birliklarda ishlatilganida, tilning obrazlilik va emotsionallik darajasini belgilashda asosiy omillardan biri bo'lib, ular shaxs va predmetning ichki, tashqi xarakter xususiyatlarini, fizik xususiyatlarini rangdor bo'yoqlarda ko'rsatuvchi so'z turkimi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda, sifatlar frazeologik birliklar tarkibida qanday qo'llanilishi va tilning obrazli imkoniyatlarini qanday kengaytirishi yoritilgan. Tahlillar natijasida adyektiv frazeologizmlar tarkibidagi sifatlarning yuqori, o'rta va quyi chastotalari aniq raqamlar bilan ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Adyektiv frazeologizmlar, leksik-frazeologik maydon, sifatlar, qo'llanish chastotasi, semantik imkoniyatlar, sema, leksema, Sketch Engine.

Kirish. Tilshunoslikda leksik-frazeologik maydon tushunchasi so'z va frazeologik birliklarning o'zaro bog'liqliklarini tahlil qilishda muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Sifatlarning ushbu maydon tarkibidagi o'rni va ularning iboraviylik xususiyatlari milliy madaniyat, xalqning dunyoqarashi va tarixiy qadriyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Frazeologik birliklarda sifatlarning iboraviylik xususiyati tilning obrazlilik va yemotsionallik darajasini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Masalan: bag'ri butun, bag'ri qon, bag'ri qora, bag'ri xun, bag'ri dog'li, bag'ri keng. Yuqoridagi misollarda bag'ir so'zi odatiy ma'nosidan og'ib, metaforik va iboraviy ko'rinishda ishlatilgan. Qora, keng, dog'li, butun kabi sifatlar otga birikib uning iboraviylik xususiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Asosiy qism. Sifatlar frazeologik birikmalarning ma'no va ifoda usullarini boyituvchi yelement sifatida tilning obrazli imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday yekan bu muhim vositani frazeologizmlar tarkibida qo'llanilish chastotasini aniqlash zarurati tug'iladi. Ko'plab til yegalari, tilshunos olimlari, lug'atshunoslari, til fidoiylari tomonidan COCA, BNC, ALC,

FRENCH WEB, GERMAN WEB, HINDI WEB kabi milliy til korpuslari yaratilib, mavjudlari to'ldirilib, so'z boyliklari kengaytirilib borilmoqda. So'ngi yillarda lingvistlar til birliklarining faollik darajasini til korpuslari asosida tahlil qilishga intilmoqda. Xo'sh bu nima uchun kerak? Tilni tadqiq qilishda korpus materiallari tahlili orqali yangi grammatik, leksik va stilistik qonuniyatlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. YE.Rafatbakhsh va A.Ahmadi fikricha korpus lingvistikasi to'plangan korpuslar orqali ko'proq ausentik va tizimli materiallarni loyihalashtirish hamda ishlab chiqishda katta hissa qo'shishi mumkin, chunki bunday korpuslar odatda maqsadli tillarning yeng yaxshi namunasi hisoblanadi. (9, 7)

Zamonaviy lingvistika fanida faollik atamasi so'zlarning til va nutqdagi katta yoki kichik rolini belgilovchi murakkab tushuncha sifatida ishlatiladi. Ushbu tushuncha A.L. Muminov va I.M. Kreyning tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. I.M. Kreyning fikriga ko'ra, so'zning faolligi ikki asosiy omildan iborat: (5, 17)

1. Til tizimidagi faollik: Bunga so'zning hosilaviy birliklari (derivativlik), ko'p ma'noliligi (polisemiya) va boshqa so'zlar bilan uyg'unlashuv (valentlik) kiradi.

2. Nutqdagi faollik: So'zning ishlatilish chastotasi orqali aniqlanadi. A.L. Muminov yesa so'z faolligini qat'iy, ya'ni, sonli o'lchovlar yordamida tahlil qilishga urinib, faollikning turli parametrlari o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlagan. (7, 21)

T.V. Mitinaning fikricha, frazeologik faollik adjektivlarning frazeologik birliklar tarkibidagi semantik strukturasiga bog'liq. Shuningdek, ular adjektivlarning semantik struktura ustidagi ta'sirining ikkilamchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Bu adjektivlar frazeologik birliklarning semantik tizimida yordamchi yoki qo'shimcha vazifa bajarishini ko'rsatadi. (6,24) So'zlarning til tizimidagi va nutqdagi faolligini tahlil qilishda semantik va sintaktik o'zaro aloqalar hisobga olinadi. Ingliz tilidagi sifat komponentli iboralarni o'rganishimiz jarayonida ular asosan aniqlovchi yoki kesim vazifasida qo'llanishiga, o'zbek tilida yesa gapda sifatlovchi aniqlovchi sifatida namoyon bo'lishiga guvoh bo'ldik. (12,1393) Ingliz va o'zbek tilidagi sifatning frazeologik faolligini aniqlashda yesa so'zning ishlatilish chastotasi, semantik potentsiali, kelib chiqishi va struktura soddaligi muhim ahamiyat kasb yetadi. Shu o'rinda biz tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlab olingan Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyyevarlar (8,636) hamuallifligida 2022 yilda nashrdan chiqqan, 636 sahifalik, 5198 ta frazeologik iboralarni o'z ichiga olgan "O'zbek tili frazeologik lug'at'i va Sh.Shomaqsudov, S.Dolimov va U.Dolimovlarning qalamiga mansub "Keng uyning kelinchagi yoki o'zbek xalq matal va iboralari yensiklopediyasi"da mavjud iboralar tarkibidagi sifatning qo'llanish chastotasini tahlil qildik. (11,640) Yuqoridagi

manbalarda jami 105 turdagi sifatlar ishtirok yetgan bo'lib, natijalar quyidagi 1 jadvalda ko'rsatilgan.

Qiyoslanayotgan ikkinchi til yani ingliz tili frazeologiyasida sifatning chastotasini aniqlash maqsadida biz Oxford korpusi asosida yaratilgan "OXFORD DICTIONARY OF IDIOMS" 4th yeditiondan foydalandik. (1,1592) Bu lug'atni tanlashimizga sabab birinchidan bu lug'at yeng ko'p idiomalarni tarifi, tarixi, misollari bilan o'z ichiga jamlagan yeng so'ngi nashr hisoblanadi, ikkinchidan bilamizki ingliz tilining leksik sathi rivojlanayotgan davrda kundan kunga yangilanib, kengayib bormoqda. Ba'zi bir iboralar yeskirib nutqiy faolligi nolga tushgan bo'lsa, ba'zilar birinchi ma'nosini yoqotib boshqa ma'noda qo'llanilmoqda. Bu borada mazkur lug'at muallifi John Ayto ham quyidagi fikrlarni bildiradi. "Leksikografiya doimiy "quvib yyetish" o'yinidir. (1,232)

Tadqiqotimizning tahlili 3 bosqichda amalga oshirildi. Birinchi navbatda iboralar qo'lda ajratib olingach, maxsus dastur tiliga o'girilib, tadqiqimiz uchun korpus yaratdik. Oxirida Sketch Yengine platformasi yordamida qidiruvni amalga oshirdik. (13)

Korpusdagi 9913 ta idiomalar tarkibida jami 602 turdagi sifat so'z turkimi ishtirok yetgan bo'lib, shundan jami 526 ta sifat past faollik darajasiga kiradi, ya'ni ushbu sifatlar 10 martadan kam ishlatilgan. O'rta faollik darajasiga 71 ta sifat kiradi, ularning chastotasi 10 dan 50 gacha. Faqat 5 ta sifat yuqori faollik darajasiga kiradi, ya'ni ushbu sifatning chastotasi 50 martadan ko'p. Good, own, va old, big, bad kabi sifatlar ushbu guruhga kirib, frazeologik birliklarning asosiy semantik yukini ko'taruvchi sifatlar yekanligini tasdiqlaydi.

Yenglish-Uzbek Top 20 Adjective Comparison

English Adjective	English Frequency	English %	Uzbek Adjective	Uzbek Frequency	Uzbek %
good	146	15,90414	Qora	49	16,61017
own	77	8,3878	Oq	40	13,55932
old	73	7,95207	Ochiq, Yengil, Sovuq	24	8,135593
big	63	6,862745	Baland	22	7,457627
bad	59	6,427015	Katta	20	6,779661
dead	44	4,793028	Qattiq	19	6,440678
high	39	4,248366	Past	16	5,423729
last	38	4,139434	Issiq	15	5,084746
hot	37	4,030501	Tor, Og'ir	13	4,40678
black	34	3,703704	Uzun	12	4,067797
short	33	3,594771	Quruq, Yomon, Butun, Xira	11	3,728814
hard	32	3,485839	Chog'i, Buzuq	10	3,389831
full	32	3,485839	Keng, Yaqin	9	3,050847
cold	32	3,485839	Yorug', Achchiq, Qizil, To'q	8	2,711864
more	31	3,376906	Yaxshi, Zo'r, Qari, O'tkir, Kichik, Bo'sh	7	2,372881
clean	31	3,376906	Eski, To'g'ri, Xom,	6	2,033898
other	30	3,267974	Siyoh, Och, G'ash, Yarim, Egri, Nozik, Yolg'on, Kalta	5	1,694915
first	29	3,159041	Uzoq, Shirin, Yolg'iz, Qimmat, Toza, Qisqa, Yangi, Mahkam	4	1,355932
little	29	3,159041	Omon, Yumshoq, Qalin, Yog'on, Tekin, Sariq, Begona, Chaqqon	3	1,016949
blue	29	3,159041	Harom, Baquvvat, Tez, Tiniq	2	0,677966

Jadval 1.

Ingliz va o'zbek tillaridagi eng ko'p ishlatiladigan 20 ta sifatni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda ham sifatning o'ziga xos faollik darajasi mavjud bo'lib, bu tillarning semantik va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Quyida chastotalar o'rtasidagi asosiy tafovutlar va ularning tahlili keltiriladi:

1. Eng yuqori chastotali sifatning farqi: Ingliz tilidagi good sifati 146 marta uchrashi bilan yetakchilik qiladi, bu esa o'zbek tilidagi eng yuqori chastotali sifat qora (49 marta) dan 97 marta ko'p. Bu tafovut ingliz tilidagi yuqori chastotali sifatning kengroq kontekstlarda va turli mavzularda ishlatilishini ko'rsatadi, o'zbek tilida esa sifatlar ko'proq konkret va tasviriy ma'noda cheklangan doirada qo'llaniladi.

2. Ikkinchi va uchinchi o'rinlardagi farq: Ingliz tilida ikkinchi va uchinchi o'rinlarda own (77) va old (73) sifatleri

keladi, ular mavhumlik, egalik va vaqt tushunchalarini aks ettiradi. O'zbek tilida esa bu o'rinlarda oq (40) va ochiq, yengil, sovuq (24) adyektivlari joylashgan, ular keng va ko'p qirralarga ega bo'lib, jismoniy holatdan ijtimoiy mavqega, hissiy holatdan ma'naviy yuksaklikka qadar turli kontekstlarda qo'llaniladi.

3. O'rta chastotali sifatlar: Ingliz tilidagi o'rta chastotali sifatlar (masalan, big - 63, bad - 59) ko'proq mavhum va umumiy xususiyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. O'zbek tilidagi o'rta chastotali sifatlar (masalan, baland - 22, katta - 20) aniq fizik va madaniy jihatlarni tasvirlashga xizmat qiladi.

4. Kam chastotali sifatning taqsimoti: Ingliz tilida kam chastotali sifatlar hali ham nisbatan yuqori chastotaga ega (masalan, 34 marta). O'zbek tilida esa eng past chastotali sifatlar faqat 2 yoki 3 marta uchraydi, bu esa yuqori chastotali sifatning o'zbek tilida muhimroq ekanligini ko'rsatadi.

5. Chastotalar pasayishidagi farqlar: Ingliz tilida sifatlarning chastotasi nisbatan tekisroq pasayadi, bu tilning kengroq leksik qamrovini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa yuqori chastotali sifatlarning ulushi kattaroq bo'lib, pasayish keskinroq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida sifatlarning semantik yuk

va madaniy ahamiyati o'ziga xos bo'lib, bu tillarning frazeologik boyligidagi asosiy farqlarni namoyon etadi. Bu xulosalar tilshunoslik, madaniyat va semantik tadqiqotlar uchun qimmatli manba bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ayto J. "Oxford dictionary of idioms" © Oxford University Press, 2020, 1592 b.
2. Cowie, A. P. Phraseology: Theory, analysis, and applications. OUP Oxford. 1998, 130 b
3. Ковалева, Л.В. Фразеологизация как когнитивный процесс /Воронеж: изд-в Воронеж, гос. унта, 2004. - 184с.
4. Кругликова, Л.Е. Структур лексического и фразеологического значения: Учеб. пособи / -М., 1988. - 84с
5. Крейн И.М. Французские заимствования XIXв. в английском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, - М., 1963. - 17 с.
6. Митина Т.В. Семантическая значимость компонентов фразеологических единиц современного немецкого языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-М., 1980.-22 с.
7. Муминов А.Л. Опыт исследования активности слов и факторов ее обуславливающих, Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -М., 1972. -21 с,
8. Rahmatullayev SH, Mahmudov N, Xolmanova Z, O'razova I, Rixsiyeva K. "O'zbek tili frazeologik lug'at", Toshkent-2022, 636 b.
9. Rafatbakhsh E & Ahmadi A. (2019). A thematic corpus-based study of idioms in the Corpus of Contemporary American English. Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education. 4. 10.11. 7 b.
10. Садыкова М. Слова, обозначающие свет и окраску в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент: 1963. –С. 74
11. Shomaqsudov Sh, Dolimov S, Dolimov U. "Keng uyning kelinchagi yoki o'zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi" Toshkent, Sharq nashryoti, 2020, 640 b.
12. Xolmatova M.I. Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili. Academic research in educational sciences, 2021, 2 (12), 1391-1397.
13. Lexical Computing CZ s.r.o., Sketch Engine: Corpus query system, accessed [date], <https://www.sketchengine.eu>.